



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 7 mart, № 49 (8672)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



BUNYODKORLIKDAN TAFAKKUR O'ZGARISHI SARI

Toshkentni yaxshi biladigan odamlar, albatta, O'qchi, Egarchi, Olmazor mahallalari haqida yaxshi tasavvurga ega. O'tgan asrning 80-yillari so'ngida — “qayta qurish” davrlari va mustaqillikning boshlarida zamon sharofati bilan yuzaga chiqqan kooperativ shirkatlar va mayda savdogarlarga “oshkoralik tuhfası” sifatida berilgan imkoniyat o'laroq shakllangan o'ziga xos chayqov bozori aynan shu mahallalar hududiga tutash katta jarlikning bir biqini — Navoiy ko'chasi va Xadra maydoniga yaqin joyda qo'nim topgandi.

Munosabat

Avvaliga Toshkentdagi oliy o'quv yurtlarida tahsil oladigan xorijlik talabalar va chetdan maishiy mollar olib kelib, ikki baravariga pullaydigan o'zimizning “uchar”lar tinda qurgan ayni bozor, ochig'i, o'zimizga ham juda fayzli va haroratli ko'rinardi. Chunki bu yer uzoq yillar yopiq bo'lgan jamiyat uchun global dunyo, ayniqsa, G'arb madaniyati va sanoati imkoniyatlari hamda yutuqlarini namoyish etardi, go'yo.

Ozodlikka erishganimizdan keyin ham o'n yillar bu yer “tijorat qatori” nisbati bilan tillarda aylanib yurdi. So'ngra poytaxt markazidagi ayni “chandi” kimlamidir bezovta qildi shekilli, bu yerda turnaqator qilib turarjoy binolari qad rostladi. Ammo xuddi “inkubator”dan chiqqanday bir xil tusdagi bu inshootlar orti qanday bo'lsa, shunday tashlandiq jarlik “maqomi”da qolaverdi. (Ochig'i, o'sha qurilgan uylardan maqsad aslida xunuk manzarani ko'zdan pana qilish bo'lganini bugun ko'pchilik yaxshi biladi). Eng yomoni, bu joy shahardagi buzish-qurish va boshqa sanoat ko'qimlari, maishiy chiqindilar tashlanadigan ulkan xandaqqa aylanib qoldi. Tasavvur qiling, mamlakat poytaxtining qoq markazida ulkan chiqindixona...

To'g'risi, Boshkentning yuragi, yangi O'zbekistonimizning tom ma'noda zamonaviy

ramziga aylanib borayotgan “Tashkent City” o'ri bundan atigi 6-7 yil ilgari shunday, ko'rganda ko'zingga cho'pday qadaladigan, dilingni qorong'i qiladigan, xalqona aytganda, gadoy yummas xarobazor bo'lganini o'z ko'zi bilan ko'rmagan, bilmagan odamga aytasang, ishonmaydi.

Men bu gaplarni bekorga aytayotganim yo'q. Kecha davlatimiz rahbari poytaxtimizda amalga oshirilayotgan qurilishlar, jumladan, mintaqamizda muqobili yo'q bo'lgan “Tashkent City Mall” savdo-ko'ngilochar markazini ko'zdan kechirdi.

U biz yuqorida muxtasar hikoya qilgan hududda joylashgan. Ochig' aytaman, men Shavkat Mirziyoyev bilan juda ko'p safarlarda, uchrashuvlarda birga bo'lganman. Ammo shu majmuaga kelgandagidek kayfiyati chog' bo'lganini, ko'zlari quvonchdan porlaganini kam ko'rganman.

Mening nazarimda, inshootning mahobatihu chiroyidan emas, ko'proq bu yerga dam olish, tomosha qilish yoki sayru sayohat uchun kelgan odamlarning kayfiyatidan, ruhiyatidan Prezidentning qalbi quvnab ketdi.

Odamlarki, ilgirigilardan yurish-turishi, kayfiyati, ayniqsa, yuz-ko'zlaridagi quvonchu samimiyat bilan xiyla farqlanadi. Bolalar va yoshlarning qadam olishi o'ta shaxdam, atrofga,

hayotga dadil boqadi.

Bu ko'tarinki umumkayfiyat Millatimiz Lideri ko'ngliga ham ko'chdi. Shavkat Miromonovich atrofdagi rasmiy kishilarning imo-ishorasiga qaramay xalq ichiga kirib ketdi. Oddiy odamlar, yoshlar, ayniqsa, bolalar bilan dildan suhbat qildi, hamsuhbatlarining kayfiyati, dunyoqarashi bilan qiziqdi.

Manzara shunday ediki, Millat Lideri o'z xalqi orasida edi. Prezidentni fuqarolarimizdagi dunyoqarash, tafakkur tarzi o'zgarayotgani xursand qilayotganday edi, nazarimda. Bu haqda quyiroqda to'xtalamiz. Hozir esa odamga mana shunday shirin tuyg'ular ulashgan voqeaga asos bo'lgan savdo markazi haqida ko'rgan-bilanimizni qisqacha bayon qilamiz. Zotan, davlat rahbari tashrif buyurgan ekan, buning albatta, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda biror qiymati bo'ldi.

Majmua ko'p funksiyali. U “Vaqt aro sayohat” nomli 3 ta noyob atriumni o'zaro birlashtirgan bo'lib, har qanday tashrif buyuruvchining ko'nglida beixtiyor O'zbekistonning boy tarixi, madaniyati va an'analari haqida yorqin taassurot qoldiradi. Hududdagi yashil muhit esa kompleksning interyeriga uyqashib, “Tashkent City Park” bilan uzviy bog'lanib ketadi.

“Tashkent City Mall” markazining umumiy maydoni 250 ming kvadrat metrdan iborat. Bu yerda zamonaviy tijorat va xizmat turlarini qamrab olgan savdo do'konlari, restoran va kafelar hamda yirik kinoteatr va sport maydonlari joylashgan. Uning yer ostida esa 2500 ta sig'imli 2 qavatli avtoturargoh ham bor.

Ayni vaqtda bu yerda dunyoning eng mashhur brendlari — “Zara”, “Zara home”, “Massimo Dutti”, “Oysho”, “Bershka”, “Stradivarius”, “Pull&Bear” hamda “Union Space” reteylerining “Adidas”, “Reebok” va “Nike” shoxobchalari

ochilgan. Shuningdek, majmuada mono va mahalliy brend do'konlari ham mavjud.

Kompleksning ko'ngilochar qismida esa ekstremal attraksionlar, virtual muhit zonasi, trenajyor zali, funksional (kompleks ravishdagi) mashqlar uchun ixtisoslashtirilgan zona, akvazonalar, guruh mashqlari va pilates uchun studiyalar, skalodrom (qoyaga chiqish mashqlari uchun maxsus devor), fin saunasi va kriosaua, padel tennisi uchun kortlar hamda bolalar uchun o'yin maydonlari tashkil etilgan.

Aytish joizki, majmua bir kunda 60 ming kishiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega. Quvonarlisi, uning ishga tushirilishi natijasida qariyb 3 ming kishi doimiy ish o'miga ega bo'ldi. Bu shuncha oilaning ro'zg'origa baraka kirdi, degani. Xullas, bu yerda xalqimiz va poytaxt mehmonlarining vaqtini qiziqarli o'tkazishi hamda maroqli dam olishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Yana bir ma'lumot: majmuaga yondosh hududda “Tashkent City Mall”ning bir qismi hisoblangan besh yulduzli mehmonxona ham bor.

31 qavatdan iborat ushbu mehmonxona bir vaqtning o'zida 500 kishiga xizmat ko'rsatish imkoniga ega. Unda yuqori martabali mehmonlar uchun barcha sharoit muhayyo qilinib, 273 ta standart xona tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Mehmonxonada, shuningdek, katta va kichik konferensiya zallari, ochiq hamda yopiq suzish havzalari, restoran va kafeteriy xizmat ko'rsatadi. Binoda zamon talabiga mos “Aqli uy” tizimi hamda tezyurur liftlar o'rnatilgan.

Mehmonxona may oyida ishga tushiriladi. Pirovardida yana 500 kishi doimiy ish o'miga ega bo'ldi.

(Davomi 2-betda).



TOSHKENT VILOYATI TUMAN VA SHAHARLARIDAGI “O'SISH NUQTALARI” TAHLIL QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev
6-mart kuni Toshkent viloyatining
tuman va shaharlaridagi imkoniyatlarni
to'liq ishga solish chora-tadbirlari
yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Toshkent viloyatida 15 ta tuman va 7 ta shahar bor. Hudud qulay geografik makonda, voha va vodi viloyatlarini poytaxtimiz bilan bog'laydigan muhim transport yo'lagida joylashgan.

Lekin viloyatning iqtisodiy rivoji mavjud salohiyatga umuman mos emas. Na savdo, na yer-suv, na transport-tranzit imkoniyatlaridan to'la foydalanilyapti. Ba'zi ko'rsatkichlar bunday qulayliklar bo'lmagan ayrim chekka hududlardagidan ham past.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda ishga solinmayotgan imkoniyatlar, bu boradagi sustkashliklar ko'rsatib o'tildi.

Poytaxtimiz jadal rivojlanayotgani holda uning yonidagi viloyat hududlari bu sur'atdan ortda qolmoqda. Masalan, Toshkent, Zangiota, Qibray, Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq tumanlarida sanoat hajmi yondosh poytaxt tumanlariga nisbatan bir necha barobar kam. Qurilish sohasida ham shu ahvol.

Bir qator kichik tadbirkorlar faoliyatini to'xtatgan. 29 ta yirik korxonada hamda Bekobod va Yangiyo'l shaharlarida ishlab chiqarish kamaygan. Viloyatda ekin yerlari ko'p bo'la turib, Andijon bilan deyarli bir xil hajmda mahsulot yetishtirilgan.

Hududlarning bor salohiyati daromadga aylanmayapti. Sababi “o'sish nuqtalari”ni topish va ishga solish bo'yicha hokimlarda tashabbus yetishmayapti. Ayrim hokimlar hatto o'z hududida “pastga tushmagan”, tadbirkorni qo'llab-quvvatlash, ish o'rinlarini ko'paytirishga harakat qilmagan.

Yig'ilishda viloyatdagi shahar va tumanlar mutasaddilari o'z faoliyatida o'zgarish qilmasa, lavozimiga loyiqligi ko'rib chiqilishi to'g'risida ogohlantirildi.

Davlatimiz tomonidan ular uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Lekin hamma tumanlarda ham rivojlanish bir xil emas. Xususan, Parkent, Yangiyo'l, Chinoz va Oqqo'rg'on tumanlarida turizm, tranzit va iqtisodiy qulayliklar ko'p bo'lsa-da, taraqqiyotdan orqada. Shu bois, Prezident topshirig'iga muvofiq, ulardagi haqiqiy holat, imkoniyatlar va tadbirkorlarning takliflari o'rganildi.

Yig'ilishda shu boradagi tahlillar, mazkur tumanlarning “o'sish nuqtalari” taqdimot qilindi.

Jumladan, Parkent tumanining xushmanzara joylariga olib boruvchi yo'llarni ta'mirlash, mikroavtobuslar qatnovini tashkil etish, yo'l bo'yida savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari qurish uchun tadbirkorlarga yer ajratish taklif etilmoqda. Parkentsoy, Qizilsoy va Chovlisoyning muhofaza hududini aniq belgilash va qirg'oqlarini mustahkamlash orqali bo'shaydigan yerlardan samarali foydalanish ham mumkin.

Yangiyo'l tumanida “loyiha qilaman, investitsiya olib kelaman”, degan tadbirkorlar juda ko'p. Lekin loyihalar uchun yer topish muammo. Shu bois hozirda bo'sh turgan inshootda oziq-ovqat va gigiyena mahsulotlariga ixtisoslashtirilgan kichik sanoat zonasi tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Chinoz tumanida savdo-ko'ngilochar majmua va zamonaviy baliq bozori barpo etish, yo'l bo'yida savdo va xizmatlarni kengaytirish, xonadonlarda issiqxonalarni ko'paytirish kabi imkoniyatlar hisob-kitob qilingan.

Oqqo'rg'onida sanoat rivojlanmagani sababli ko'plab xotin-qizlar Toshkent shahri va boshqa tumanlarga qatnab, to'qimachilik korxonalarida ishlamoqda. Shunday korxonalarni tumanidagi bo'sh binolar o'rnida tashkil qilish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari tumanlar iqtisodiyotini sog'lomlashtirish bo'yicha choralarni ko'rsatib o'tdi. Mutasaddilarga viloyatning barcha hududini shunday tahlil qilib, qo'shimcha “o'sish nuqtalari”ni aniqlash, daromad manbalarini ko'paytirish vazifasi qo'yildi.

Bu borada bir qator rejalar ham bor. Xususan, Ohangaron tumanida O'zbekiston — Vengriya sanoat zonasi tashkil etilib, 100 million dollarlik loyihalar joylashtiriladi. “Angren” erkin iqtisodiy zonasida maishiy texnika, metall prokat, meva-sabzavotni qayta ishlash bo'yicha 400 million dollarlik, “Eltex industrial” texnoparkida 260 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi.

Yig'ilishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilib, iqtisodiy-ijtimoiy loyihalarni jadallashtirish masalalari ko'rib chiqildi. Poytaxtdagi sanoat korxonalarini bosqichma-bosqich shahardan tashqariga ko'chirish rejalashtirilgani, bu Toshkent viloyati uchun katta imkoniyat ekani ta'kidlandi.

O'zini o'zi band qilgan insonlarning kichik biznesga o'tishi, faoliyatini to'xtatgan tadbirkorlarning ishini yana tiklashiga ko'maklashiladi. Tomorqalarda Chinoz tajribasi bo'yicha ixcham issiqxonalar, kooperatsiya asosida mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash majmualari tashkil etiladi.

Shuningdek, joriy yilda mahalliy va xorijiy turistlar sonini 5 millonga, turizm eksportni kamida 300 million dollarga yetkazish choralari bo'yicha fikr almashildi.

Xotin-qizlar va yoshlarni kasbga o'qitish hamda bandligini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

O'ZA.

“O'ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARINI AMALGA OSHIRISH DOIRASIDAGI ISHLARNING BORISHI KO'RIB CHIQILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
6-mart kuni iqtisodiy rivojlanish, samarali boshqaruv va xalqaro
hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchi
Suma Chakrabarti bilan uchrashuv o'tkazdi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasining borishi va uni joriy yilda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturining ijrosi ko'rib chiqildi. O'zbekistonning JSTga kirish bo'yicha muzokaralar jarayoni doirasidagi ishlarni faollashtirish, jumladan, milliy normativ-huquqiy hujjatlarni tashkilot talablariga uyg'unlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Ichimlik suvi ta'minoti, maktablar infratuzilmasini yaxshilash, onkologik kasalliklarning oldini olish, davlat xizmatida

sifatni oshirish va raqobatni ta'minlash borasidagi loyihalar bo'yicha aniq amaliy choralarni davom ettirish zarurligi ta'kidlandi.

Uchrashuvda O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, jumladan, investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish masalasiga e'tibor qaratildi. Shu ma'noda, maslahatchi ilg'or xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda tijorat nizolarini hal qilishning aniq mexanizmlarini taklif etdi.

O'ZA.

Dunyo nigohi

O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan ma'qullangan rezolyutsiya jahon turizm sanoatida muhim voqelik bo'ldi

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasi keng jamoatchilik, ekspert va tahliliy doira vakillari, BMTning ixtisoslashtirilgan agentliklari va xalqaro tashkilotlarning yuqori qiziqishiga sabab bo'layotir.

Xususan, “BNB Breaking” xalqaro axborot agentligi mazkur hujjatning qabul qilinishini “jahon turizm sektoridagi muhim voqea” sifatida baholadi. Ta'kidlanishicha, BMT



tomonidan 2027-yilning “Xalqaro barqaror va

yashovchan turizm yili” deb e'lon qilinishi sayyohlik sanoati oldida turgan murakkab muammolarni e'tirof etish va hal qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Rezolyutsiya yanada barqaror, yashovchan va inklyuziv turizm sektorini yaratish uchun hamkorlik hamda innovatsiyalarni rag'batlantirib, kelajak uchun aniq yo'nalishlarni belgilab beradi.





BUNYODKORLIKDAN TAFAKKUR O'ZGARISHI SARI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Kimdir yozgan edi: Mustafa Kamol Otaturk xalqqa shlyapa kiyishni majburiy qilganda, kiyimni emas, ruhiyatni o'zgartirishni maqsad qilgan edi. Ha, shaxsning shakllanishida psixologiya muhim rol o'ynaydi. Buni fan isbotlagan.

Otaturk Usmonli imperiyasining konservativ qadriyatlarini o'ziga meros qilib olgan zamonaviy turk jamiyatini shakllantirishda bu yo'dan mohirlik bilan foydalangan. Ammo hozir gap Turkiya haqida ham, uning atoliq yo'l boshchisi haqida ham emas, gap o'zimiz haqimizda. Ya'ni millatni ilhomlantiradigan, qalbini zavq-shavqqa to'ldiradigan, sovet va undan keyingi zamonlarning xira xotiralaridan charog'on manzillar sari yetaklovchi, kelajakka ilhomlantiruvchi amallar haqida.

O'z mohiyat-e'tibori bilan ayni bunyodkorlik ishlari xuddi Turk lideri Mustafa Kamol tajribasidek odamlar tafakkurini o'zgartirishga qaratilgan bilan ahamiyatli, desam, to'g'ri gapni aytgan bo'laman.

Ilgari ham yozganman. Bizda mustabidlikdan keyingi zamonlarda ham dunyoqarash, ayniqsa, siyosiy zehniyat o'zgarishi ancha qiyin kechdi: davlat strukturalari va jamiyatni isloh qilishda yevrosentrik g'oyalar, his-tuyg'ular ustunlik qildi. Global dunyo, ayniqsa, taraqqiyparvar madaniyatlardan qo'rquv, zamonaviy tamaddunlarga integratsiya bo'lishdan shubhali xavotir bordek edi.

Bundanam to'g'rirog'i, G'arb qadriyatlari, ayniqsa, liberalizmi turli lash-lushlarga o'ralashib o'rnashib olgach, palak yoyib ketsa, nima bo'ladi, degan javobi murakkab bo'lgan savol ham yo'q emas edi. Ehtimol, shu hadik bois G'arb sari "yurish" imi-jimida to'xtadi. Bu nafaqat tizim va jamiyatdagi islohotlar, hatto ijtimoiy ta'sirlardan xiyla xoli bo'lgan sohalar, masalan, oddiygina me'morilik va shaharsozlik sohasida ham ko'zga tashlandi.

Toshkentda chorak asr mobaynida o'tgan asrning 90-yillari boshida qurilgan "Milliy bank" va "Interkontinental" mehmonxonasini o'z ichiga olgan ansambl va uning biqinidagi "Disney Lend" bolalar ko'ngilochar o'yingohidan bo'lak G'arb an'analari va arxitekturasini o'zida jamlagan, "ozodlik ilhomi" (modernizm) qudratini o'zida aks ettiradigan biror inshoot barpo etilmadi. Va ayni omillar madaniyat va san'at, jumladan, milliy zehniyatimiz, tafakkurimizning temir qobiq ichida qolib ketishida, akademik tilda aytganda, kolonial karakter kasb etishida asosiy rol o'ynadi.

Men yuqorida Otaturk bilan bog'liq voqeani bekorga keltirmadim. Zotan, kuchli liderlar har qanday "o'tish davri"da asosiy e'tiborni xalqning, millatning, jamiyatning tafakkurini o'zgartirishga, o'zi orzu qilgan ulkan maqsadlarga uyg'unlashtirishga harakat qiladi, buni islohotlarining poydevori sifatida talqin etadi.

Shu ma'noda, bugun O'zbekistonda keng quloq yoygan ulkan bunyodkorlik, sovet davrida bo'lganidek, qo'shnilar bilan "kimo'zar"ga chiranish emas, balki millatimizning ruhiyatini ko'tarish, tafakkurini yangilash, qisqacha aytganda, biz dunyodagi hech bir davlat yoki xalqdan kam emasmiz, degan tuyg'uni odamlarimiz qalbidagi alangalatlarni maqsad qilgan, desam, yangilashmagan bo'laman. Zotan, bunyod etilayotgan bu inshootlar — xalq uchun, kelajak avlod uchun.

E'tibor qiling, 2023-yil mamlakatimizda jami 149 864,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan va bu 2022-yildagiga nisbatan 6,4 foiz o'sgan. Albatta, men qurilish sohasi tahlilchisi emasman, ammo oddiy odam ham tushunadigan bu raqamlar yurtimizda bunyodkorlik uchun qanday ko'lamda ish ketayotganini aniq ko'rsata oladi.

Meni quvontirayotgan jihat esa ayni yaratuvchilik odamlarimiz turmushi bilan birga, ularning tafakkurini ham yangilayotganida. Ha, bugun odamlar o'zgardi. Hayotga, Vatanga muhabbati oshdi. Buni hikoya qilayotganimiz savdo markaziga Prezidentimizning tashrifi davomida ham aniq sezdim. Xalqimizning birlashib o'zgarishlarga, yangilanishlarga mehri o'zgacha. Ayniqsa, yoshlar ko'zidagi ishonch va qat'iyat odamni to'qintiradi.

Kechagi tashrif davomida fuqarolarimiz va Prezidentimizning favqulodda muloqotini ko'rib, bir narsani chuqur angladim. Xalq o'z Lideriga ishonadi, unga kamarbasta

bo'lishga o'zini mas'ul, deb biladi. Bu juda katta yutuq! Prezidentning, xalqning, o'tmishi shonli bo'lgan Vatanimizning tarixiy g'alabasi, agar angliyatgan bo'lsangiz.

Davlatimiz rahbarining xalqqa juda yaqinligini va odamlarimizning unga qat'iy ishonchini bugun dunyodagi ko'p ekspertlar, siyosatchilar haqli ma'noda e'tirof etishmoqda. Xususan, britaniyalik jurnalist Joanna Lillis o'tgan yili 10-iyulida "BBC"ga bergan intervyusida O'zbekiston haqida gapirarkan, "Men yaqinda O'zbekistonda bo'lib qaytdim. Odamlar bilan suhbatlashar ekansiz, u (Shavkat Mirziyoyev) mashhur ekaniga ishonch hosil qilish mumkin" degan edi.

Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham borki, buniyam aytib o'tmasak, adolatsizlik bo'ladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan shuncha ishlar ustiga parda tortib, faqat illat va kamchilik qidiradigan bir qavm ham keyingi yillarda bizda shakllandi.

Faqat yomon deyish, inkor qilish, noliq bunday odamlarning asosiy vazifasiga aylanib qolganek, go'yo. Mayli, to'fonni qog'oz to'siq bilan to'sib bo'lmaganidek, yangi O'zbekistonimizni Prezident Shavkat Mirziyoyev boshlab borayotgan yo'dan hech narsa ortga qaytara olmaydi. Muhimi, xalqimiz o'z Lideriga ishonadi, uni qo'llab-quvvatlaydi. Eng asosiysi, davlat ham, jamiyat ham ulkan o'zgarishlar jarayoniga kirdi.

Qudratilla RAFIQOV,
siyosatshunos.

O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan ma'qullangan rezolyutsiya jahon turizm sanoatida muhim voqelik bo'ldi



“Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili iqtisodiy o'sish, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy adolat o'rtasidagi uyg'un muvozanatga intilib, sanoatning sayyoramiz hamda uning aholisiga ta'sirini qayta aniqlash uchun noyob imkoniyat taqdim etadi”, deyiladi “BNN Breaking” tarqatgan maqola xulosasida.

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)
2027-yilning “Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” deb e'lon qilinishini turizmning barcha uchun yaxshiroq dunyoni barpo etishdagi rolini yaqqol e'tirofi ekanligini ta'kidledi.

“Bu sayyohlik kuchli va har qanday qiyinchiliklarga samarali dosh bera oladigan darajada xilma-xil bo'lishini ta'minlash uchun birgalikda ishlash imkoniyatidir”, deyiladi tashkilot xabarnomasida.

UNWTO, shuningdek, O'zbekistonga va ushbu hujjatning boshqa 80 dan ortiq hammualiflarga rezolyutsiya tashabbuskorligi va qo'llab-quvvatlaganliklari uchun samimiy minnatdoriq bildirgan.



dunyo bo'ylab 300 milliondan ortiq kishilarni ish bilan ta'minlashini ta'kidledi. Uning aytishicha, sanoat BRMga erishish uchun kalit hisoblanadi va turizm sektorini o'zgartirishga qaratilgan sa'y-harakatlar juda muhimdir.

“GUAVA Net-Zero” kompaniyasi ekotizimdagi global strategik hamkorlari bilan birgalikda rezolyutsiyani amalga oshirish va turizm orqali Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlashga tayyorligini tasdiqladi.

Xalqaro amaliy fanlar universiteti professori, mehmonxona biznesida barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ko'plab ma'ruzalar muallifi **Vilii Legrand** ushbu muhim rezolyutsiyaning qabul qilinishi bilan samimiy qutlar ekan, mazkur hujjatning akademik doira vakillari va ta'lim muassasalari talabalari uchun muhim ahamiyatiga to'xtalib o'tadi.

“Ushbu yangilik, haqiqatan ham, universitetlar bitiruvchilari kelajakda bajarishi kerak bo'lgan vazifalarni qonuniylashtirishda kuchli turtki bo'lib, ayni paytda turizm sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi asosiy rolini e'tirof etadi”, dedi u.

Bosh Assambleya rezolyutsiyasiga ko'ra, Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yilini muvofiqlashtirish va amalga oshirish vazifalari UNWTO zimmasiga yuklangan bo'lib, u o'z navbatida, xalqaro yil uchun aniq vazifalarni belgilab beruvchi strategik rejalarni hamda “yo'l xaritalari”ni ishlab chiqadi.

Ushbu rezolyutsiyaning amalga oshirish bo'yicha UNWTOning tegishli hujjatlari qabul qilinishi kutilmoqda. Shuningdek, Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili munosabati bilan yirik global va mintaqaviy forumlar hamda tematik tadbirlar tashkil etiladi, dunyoning yetakchi ommaviy axborot vositalarida keng ko'lami axborot kompaniyalari olib boriladi, jahon hamjamiyatining xabardorligini oshirish va turizm industriyasi institutlarining salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan turli loyiha va dasturlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik farovonlikni ta'minlashda turizmning afzalliklarini ochib berishga bag'ishlangan ilmiy nashrlar chop etiladi.

Milliy, mintaqaviy va global miqyosda amalga oshirilgan ishlar natijalariga ko'ra, UNWTO 2028-yilda Bosh Assambleyaga batafsil hisobot taqdim etadi.

“Dunyo” AA.

Nyu-York

SPORT MAHORATI MAKTABLARI

yangi chempionlarni tarbiyalashda tayanch dargohga aylanadi

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni Toshkent shahrida sport ta'limi, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yangi zamonaviy obyektlar, ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi. Xususan, Bahodir Jalolov ixtisoslashtirilgan boks sport maktabi hamda Oksana Chusovitina ixtisoslashtirilgan gimnastika sport maktabiga tashrif buyurib, ushbu ta'lim muassasalarida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Yosh sportchilar bilan suhbatlashdi. Ular uchun

Dil so'zi

Bahodir JALOLOV,
Boks bo'yicha Olimpiada va Osiyo o'yinlari g'olibi, ikki karra jahon va uch karra Osiyo chempioni:

— Olimpiya o'yinlaridagi g'alabamizdan so'ng Prezidentimiz boks bo'yicha Bahodir Jalolov sport mahorati maktabi tashkil etilishi borasidagi qarorini imzoladi. Bu quvonchli yangilik menga juda katta kuch, baland ruh berdi.

Yurtimizda sport turlariga ixtisoslashtirilgan yangi maktablarning ochilishi tarixiy voqelik, desak, yangilashmaymiz. Yoshlarga ta'lim va amaliyot uyg'unlikda beriladigan ushbu maskanlarda mamlakatimiz ixtidori bo'lgan sportchilar kamolga yetishi, shubhasiz.

Maktabimiz 175 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, 5 — 11-sinflarga har yili 25 nafardan o'quvchi mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan talabgorlar orasidan saralab olinadi. Ilk iqtidorlar 2022-yilgi o'quv yilida qabul qilingan edi. Bugungi kunda 50 nafar o'quvchi tajribali murabbiylardan saboq olmoqda. Qolaversa, o'z tajriba va mahoratini ham yoshlarga o'rgatishga harakat qilyapman.

Davlatimiz rahbari yoshlarga Vatanimiz tarixini,



xorijiy tillarni yanada chuqur o'rgatish lozimligini ta'kidledi. Shundagina biz tarbiyalayotgan yigit-qizlar yurtimiz sharafini himoya qilish naqadar yuksak burch ekanini yurakdan his etadi, mamlakat sha'ni uchun borini berib kurashadi. Chet ellarda murabbiylar va sportchilar bilan bemalol muloqotga kirishadi.

Izlanishlarimiz, mashaqqatli mehnatlarimiz besamar ketmayapti. Tarbiyalanuvchilarimiz orasidan yangi chempionlar yetishib chiqyapti. O'quvchilarimiz o'tgan yili xalqaro va respublika musobaqalarida 26 ta oltin, 18 ta kumush, 15 ta

imkoniyatlarni yanada kengaytirish bo'yicha mutasaddilarga zarur topshiriqlar berdi.

Bunday e'tibor va g'amxo'rlik Vatanimiz faxri bo'lgan sportchilarni juda quvontirib yuborgani shubhasiz. Zero, endi ular boks va gimnastika sir-asrorlarini yosh avlodga o'rgatish, jahonda o'z o'ini, o'z so'ziga ega bo'lgan, davlatimiz bayrog'ini xalqaro maydonlarda mag'rur hilpiratadigan nomdor sportchilarni tayyorlash, o'z izdoshlarini kamolga yetkazishga hissa qo'shishda keng imkoniyat va qulayliklarga ega. Ayni chog'da bu faxr-iftixor bag'ishlashi bilan birga, katta mas'uliyat ham yuklaydi.

bronza medalni qo'lga kiritdi. Bu, albatta, faxrli natija, biroq bizda muvaffaqiyatlarni yanada oshirish uchun imkoniyatlar yetarli. Hozirda bu natijalarni yanada yaxshilash yo'lida murabbiylar bilan birgalikda bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilyapmiz. Aminmanki, intilishlarimiz, saboqlarimiz besamar ketmaydi, yutuqlarimiz son va sifat jihatdan oshib boraveradi.

Ochig'ini aytadigan bo'lsak, ilgari O'zbekiston terma jamoasida ham maktabimizdagi kabi sharoitlar yo'q edi. Endilikda terma jamoa sportchilari ham kelib bu yerda mashg'ulotlar o'tkazishi mumkin.

Prezidentimiz ko'rsatmasiga ko'ra, maktabimiz butun mamlakatimiz yosh bokschilari uchun o'quv-mashg'ulot bazasi bo'ladi. Yosh istiqbolli bokschilarni tanlash va tarbiyalash bo'yicha boshqa sport maktablari hamda markazlari bilan hamkorlik qilib boradi.

Yaratilgan sharoitlar, ko'rsatilayotgan mehr uchun Yurtboshimizga minnatdoriq bildiramiz va kelgusida ham bunday e'tiborga munosib bo'lishga intilamiz.

Jahon olimpiadalarida, xalqaro musobaqalarda munosib qatnashib, oltin medallar shodasi bilan yurtimizga qaytamiz, orqamizda tog'dek suyak turgan xalqimiz va yaqinlarimiz ishonchini oqlaymiz.

Oksana CHUSOVITINA,
Sport gimnastikasi bo'yicha uch karra jahon chempioni,
jahon kubogi sohibi:



— Prezidentimiz bundan bir necha yil muqaddam Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan sportchi va murabbiylar bilan uchrashuvda Oksana Chusovitina ixtisoslashtirilgan gimnastika sport maktabini tashkil etish tashabbusini ilgari surgan edi. Shundan so'ng tezda amaliy ishlar boshlanib ketdi. Mana, bugun ko'rib turibmizki, qisqa fursatda ko'z o'ngimizda eng zamonaviy sharoitlarga ega bo'lgan muhtasham maktab binosi qad rostlab turibdi.

Davlatimiz rahbarining maktabimizga tashrifi barchamiz uchun bir umrlik taassurot qoldirdi. Prezidentimiz bizga qaratgan “Nima uchun biz bu yo'nalishga katta e'tibor berib, maktablar yaratyapmiz? Gimnastika — hamma sport turlarining asosi. Futbolchi ham, bokschi ham,

sog'lom bo'laman degan inson ham gimnastika qilishi kerak. Iqtisodiyotni rivojlantirish, yoshlarga ta'lim berish bilan birga ularni sport bilan shug'ullanib olarsa, yurtimizda sog'lom zurriyat, sog'lom millat bo'ladi”, deya ta'kidledi. Bu so'zlar nafaqat men, balki barcha yurtdoshlarimizga, sportchilarimizga, gimnastika sport turiga qiziquvchi yoshlarimizga ayrica ruh bergani muqarrar.

Maktabda gimnastikachi yoshlarimiz ham yashab, ham ta'lim olib, mashg'ulotlar o'tkazmoqda. Umuman olganda, bu maskan gimnastikachilar uchun respublikadagi yagona o'quv-mashg'ulot bazasi, desak ham adashmaymiz.

Dargohimiz 5 — 11-sinflardagi 105 nafar o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, ayni chog'da 91 nafar o'g'il-qiz sport sirlarini o'rganmoqda. Ular sport bilan shug'ullanish barobarida bilim olayotgani, ikkita xorijiy tilni o'zlashtirayotgani ham alohida tahsinga sazovor.

O'quvchilarimiz o'tgan yilgi sport gimnastikasi va badiiy gimnastika bo'yicha xalqaro musobaqalarda 4 ta, respublika turnirlarida 6 ta va sport maktablari o'rtasida 24 ta medalni qo'lga kiritdi. Bu — olib borayotgan ishlarimizning deochoasi, albatta. Maqsadlarimiz yanada yuksak: jonajon Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qiluvchi, xalqparvar hamda jahon chempionlarini tarbiyalashdan iborat.

“Xalq so'zi”.

Сенатор ва ҳаёт



Joylarda energiya tejovchi texnologiyalar qanday joriy etilmoqda?

Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi majlisida Namangan viloyatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish holati keng muhokama qilindi.

Viloyatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini samaradorligini oshirish orqali energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, jami 31,2 MVT quvvatdagi quyosh panellari o'rnatilishi ta'minlangan, shundan ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarda 15,37 MVT, tadbirkorlik subyektlari bino va inshootlarida 11,91 MVT, ko'p qavatli uylarda 0,32 MVT hamda aholi xonadonlarida 3,6 MVT quvvatdagi quyosh panellari o'rnatilgan.

"Quyoshli xonadon" dasturi bo'yicha 44 ta jismoniy shaxs tomonidan o'z iste'molidan organ va yagona energetika tizimiga sotgan 20,1 MVT elektr energiyasi uchun 20,1 mln. so'm subsidiya ajratish borasidagi ro'yxat soliq idoralariga yuborilgan.

Shuningdek, o'tgan yili 331,5 mln. kVt-soat elektr energiyasi tejashga erishilgan. Kuz-qish mavsumi yakuniga qadar tejalgan tabiiy gaz 78 mln. kub metrqa yetkazilib, bu boradagi maqsadli ko'rsatkichlar bajarilgan.

Muhokama jarayonida energiya resurslarini tejash, energiya samaradorligini oshirish borasida ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligiga e'tibor qaratildi. Bu bo'yicha viloyat, vazirlik va idoralar mas'ul rahbarlarining axborotlari eshitildi.

Jumladan, prokuratura organlari tomonidan "Texno Mir Savdo" MCHJ rahbari Chortoq tumanidagi 53-umumta'lim maktabiga quyosh panellarini o'rnatishda 141,1 mln. so'm budget mablag'ini talon-torij qilganligi aniqlanib, ushbu holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

"Xalq so'zi".

BOLALAR MANFAATLARI HIMOYASINING IJTIMOY KAFOLATI


Bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish barcha rivojlangan mamlakatlarda davlat siyosatining birlamchi vazifalaridan sanaladi. Yurtimizda ham ertamiz egalari — farzandlarimizning jismonan va ma'nau yetuk insonlar bo'lib kamol topishi uchun barcha imkoniyat va salohiyat ishga solinmoqda.

Qonun kuchga kirdi

Binobarin, "Inson qadri uchun" g'oyasi hamda "hech kimni orqada qoldirmaslik" tamoyiliga tayanib olib borilgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga bolaning huquq va manfaatlarini ta'minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi ilg'or normalar kiritildi. Xususan, Asosiy Qonunimizda bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha kafolatlar kuchaytirildi, bu borada davlatning ijtimoiy majburiyatlari kengaytirildi. Shuningdek, ota-onalarning farzandlari oldidagi majburiyati alohida ko'rsatildi. Davlat va jamiyat ota-onaga buyulgan mahrum bo'lgan va yetim bolalarga g'amxo'rlikni o'z zimmasiga olishi qayd etildi. Onalik va bolalik davlat muhofazasida ekani qat'iy mustahkamlandi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda yurtimizda bola huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Sohada yangi yondashuv va uslublar joriy etildi. Bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid maxsus qonunchilik bazasi yaratilib, uning ijrosi yuzasidan samarali huquqiy mexanizmlar qo'lga ko'yildi.

Davlatimiz rahbarining bola manfaatlarini ta'minlash borasidagi qat'iy siyosiy irodasi tufayli amalga oshirilgan tizimli choralar natijasida bugun, jumladan, neonatal o'lim ko'rsatkichlarining sezilarli pasayib borayotgani, maktabgacha ta'lim qamrovining 76 foizgacha keskin oshgani va albatta, bolalar mehnatiga batamom barham berilgani e'tiborga



molik. Bu natijalar nafaqat milliy darajada, balki jahon miqyosida ham e'tirof etilmoqda.

Aytish joiz, milliy qonunchiligimizda bola huquqlari bilan bog'liq qonun hujjatlari soni 40 dan, qonunosti hujjatlari soni 500 dan ortiqni tashkil etadi. Bu esa, o'z navbatida, bola huquqlari sohasidagi qonunchilik bilan ixtisoslashgan holda ish olib borish hamda uning ijrosi bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish zarurati yuzaga keltirdi.

Shu bilan birga, bugungi kunda bola huquqlarini himoya qilishga oid davlat siyosati sohada yana ko'plab muhim va dolzarb masalalarni hal etishni taqozo qilayotir. Jumladan, aynan ana shu vazifalarni samarali amalga oshirish yo'lida yangi ixtisoslashtirilgan, inson huquqlarini himoya qilish milliy instituti — Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) ta'sis etildi. Bu institut Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan joriy etildi.

Bolalar ombudsmanining institutsional isloh qilinishi, parlamentning mustaqil siyosiy institut sifatida uning maqomi

XALQARO DARAJADAGI MOLIYA-IQTISODIYOT MUTAXASSISLARI TAYYORLANADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tomonidan "O'zbekistonda xalqaro darajadagi moliya-iqtisodiyot mutaxassislarini tayyorlash: muammo va yechimlar" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.

Davra suhbatlari

Qonunchilik palatasi deputatlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston sertifikatlangan moliya mutaxassislari uyushmasi (ACFP), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mutasaddilari hamda OAV vakillari ishtirok etgan tadbirida ta'kidlanganidek, keyingi yillarda yurtimizda iqtisodiyot va moliya sohasidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularni samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, o'quv jarayonlariga eng so'nggi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ilg'or xorijiy tajribaga ega ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, iqtisodiyot, moliya va soliq sohalar bo'yicha dunyodagi so'nggi tendensiyalar, moliyaviy texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajriba va real iqtisodiyot talablarini hisobga olgan holda oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirish bo'yicha salmoqli ishlar bajarildi.

Prezidentimizning shu yil 7-fevraldagi "Iqtisodiyot sohalarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim huquqiy asos bo'ldi. Ushbu hujjat bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tarkibiga Toshkent moliya instituti va Fiskal institut qo'shildi.

Har bir davra kadrlar masalasi mamlakatlar taqdiri uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, — dedi Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Durbek Ahmedov. — Shu ma'noda, keyingi yillarda yurtimizda kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimi tubdan takomillashtirildi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan barqaror

o'sish masalalarini hal etishda iqtisodiyot va moliya sohalarini uchun yuqori malakali hamda xalqaro talablarga mos kadrlar juda kerak.

Tadbirida so'z olganlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish bo'yicha davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-fevraldagi tegishli qaroriga muvofiq, o'tgan davra amalga oshirilgan ishlarga alohida to'xtalib o'tdilar.

Qayd etilganidek, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Sertifikatlangan diplomli buxgalterlar xalqaro assotsiatsiyasi (ASSA), Buyuk Britaniya) bilan xalqaro ta'lim standartlari asosida MHXS bo'yicha kadrlar tayyorlashga qaratilgan memorandum imzolandi. Shuningdek, ASSA bilan o'zaro hamkorlik jarayonida 19 dan ortiq o'quv markazlari xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tdi. Bu esa MHXSga muvofiq o'qitish sifatini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha mutaxassislarning mehnat bozoriga kirishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilash



maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari hamda talabalari, davlat organi xodimlarining MHXSga o'qitish va buxgalterlarning xalqaro sertifikatlari doirasida dastlabki ro'yxatdan hamda imtihon topshirish uchun ro'yxatdan o'tish xarajatlarini qoplab berish tizimi joriy etildi. Bugungi kunga qadar 2 405 nafar talabgora 5, 910,8 mln. so'm qoplab berildi.

Davra suhbatlari davomida Sertifikatlangan diplomli buxgalterlar xalqaro assotsiatsiyasi (ASSA), Buyuk Britaniya) malakasi, moliya-iqtisodiyot mutaxassisliklari bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash va

sertifikatlashga xalqaro standartlarni joriy etish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish, auditorlarni sertifikatlashning xalqaro va milliy tajribasi va boshqa masalalar yuzasidan ham ma'ruzalar tinglandi.

Tadbir yakunida ACFP va ASSA qo'shma imtihonlarini o'tkazish to'g'risida bitim imzolandi. Bu jahonning 180 dan ortiq mamlakatlarida e'tirof etiladigan "Moliya va biznesni boshqarish" xalqaro diplomiga O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq soliq solish va huquq bo'yicha imtihonlarni kiritish imkonini beradi.

"Xalq so'zi".

Fikr

Yosh avlodni ilatlardan asraylik

Keyingi yillarda mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ular analoglari va psixotrop moddalar, shuningdek, kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof ravishdagi muomalasiga qarshi kurashish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotir.

Biroq bugungi kunda giyohvandlik vositalarini targ'ib qilishning yangidan-yangi usullari paydo bo'lmoqda. Giyohvandlik vositalarini tayyorlash, ularni foydalanish usullarini internet, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etish, joylarda devor va yo'laklarga internet-dok'on manziling matni yoki grafikasini chizish ("narkograffiti") orqali reklama qilish holatlari uchrashmoqda. Shu bilan birga, giyohvandlik vositalarini o'tkazish uchun mijozlarni topishda axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish holatlari ham kundan-kunga ortib boryapti.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni virtual maydonda reklama qilish yoki sotish bilan bog'liq holatlar 2021-yilda ikki yuzta atrofida aniqlangan bo'lsa, o'tgan 2023-yilda yetti mingdan ortiq bunday holatlar aniqlangan. Bu esa aholimiz, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni bunday illatlardan asrash borasida kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Bunday salbiy holatga qarshi kurashish va giyohvandlik bilan bog'liq vaziyatni o'nglash maqsadida hududlarda aniqlanayotgan holatlar o'rganilib, statistik ma'lumotlar tahlil etilib, zarur choralar ko'rilayapti. Jumladan, 2022-yilda maxsus idoralaror ishchi guruhi tuzildi hamda uning asosiy vazifasi etib internet tarmoqlarida narkotik moddalarning reklamasi va savdosi bilan shug'ullanuvchi onlayn do'konlar manzillarini aniqlash, ularni blokirovka qilish hamda aholi yashash maskanlarida giyohvandlik vositalari savdosi amalga oshiriladigan elektron do'konlarning manzillarini aks ettiruvchi "narkograffiti"larni aniqlab, o'chirish belgilandi.

Bu vazifalarni bajarish uchun bir qator botlar yaratildi hamda mazkur botlar orqali kelib tushayotgan ma'lumotlar asosida turli tadbirlar tashkil etilib kelinmoqda. Xususan, o'tgan yilning olti oy mobaynida respublika bo'yicha jami 4 239 ta "narkograffiti" aniqlanib o'chirilgan va ularga aloqador bo'lgan 25 nafar shaxs ushlangan.

Aytish joizki, bunday holatlarda aybdor shaxsni, ya'ni jinoyatchini aniqlash qanchalik murakkab ekanligi barchaga ayon. Shuning uchun ham bunday yo'lga kirgan shaxslarga nisbatan qat'iy jazo choralari qo'llash "qonun ustuvor, jazo muqarrar" prinsipini amalga ro'yobga chiqarishga jazo



qiladi.

Shu o'rinda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, shuningdek, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof ravishda muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi yuqoridagi keltirilgan muammolarni hal etishning huquqiy asosini yaratishga qaratilgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mazkur loyiha bilan giyohvandlik vositalarini hamda kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni OAV, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda tarqatganlik, reklama qilganlik va namoyish etganlik uchun ma'muriy javobgarlik, agar bunday holat bir yil ichida takroran sodir qilinsa jinoyi javobgarlik belgilash taklif etilmoqda.

Bu qonun loyihasi bejiz ishlash chiqilmadi. Chunki hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va ularning analoglari, prekursorlar hamda tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar bo'lgan dori vositalarining internet, shu jumladan, turli ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar orqali tarqalishining salbiy tendensiyasi kuzatilayotgani yurtimizning ertangi kunga befarq bo'lmagan barchani xavotirga solyapti.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni targ'ib etuvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish hamda uning reklamasi, bunday moddalarni iste'mol qilishga jalb etish uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasining qabul qilinishi bu vositalarning virtual maydondagi reklamasi va sotish holatlarining barvaqt oldini olishga jazo

Jumanazar OTAJONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

tegishli chora ko'rilishini ta'minlash imkonini yaratadi.

Shuningdek, Bolalar ombudsmanining Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud Plenumi majlislarida ishtirok etishi yoki takliflar kiritish huquqi mustahkamlandi. Mazkur huquq orqali Bolalar ombudsmani parlamentda, ijro organlarida va sudlarda bola huquqlarini maxsus himoya qiladi va mazkur organlar e'tiborini aynan bola manfaatini ustunligiga qaratadi. Oddiy aytganda, davlat siyosatining bola huquqlarini ta'minlash sohasida bevosita va faol ishtirok etadi.

Bundan tashqari, Qonun bilan surishtiruv, tergov organlari va sud voyaga yetmaganlarning hayoti, sog'lig'i yoki jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarga oid qabul qilgan qaror, hukm (ajrim)lari to'g'risida Bolalar ombudsmanini yozma ravishda xabardor etishi shart, deb belgilandi. Bu ham nihoyatda muhim preventiv mexanizmlar bo'lib, bunday xabardorlik natijasida bolalarga qarshi jinoyat faktlari yashirilishi, bunday ishlarning qonunga zid ravishda tugatilishi, tergov qilinishligi yoki sudda qo'rilmasligining oldi olindi.

Qonun bilan Bolalar ombudsmaniga qator protsessual vakolatlari, jumladan, voyaga yetmagan shaxs ishtirok etgan jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishish va ulardan ko'chirma nusxalar olish, bolaning buzilgan huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish hamda tiklash maqsadida sud jarayonlarida qatnashish, hukm bilan tanishib, bola manfaatidan kelib chiqib, prokuratura hukm ustidan protest bildirish haqida murojaat qilish kabi huquqlar berilmoqda. Bolaning manfaatlari buzilayotgan holatlarda Bolalar ombudsmani mazkur yangi vakolatlarni ish qonuniy hal etilishi va aybdorlarga adolati jazo belgilanishiga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman aytganda, Bolalar ombudsmani faoliyatini qonuniy tartibga solish, uning siyosiy maqomini kuchaytirish va vakolatlari ta'sirchanligini oshirishdan maqsad — yurtimizning har bir kichik fuqarosi, har bir bolaning yangi tahrirdagi Konstitutsiya va qonunlarda kafolatlangan barcha huquq-imkoniyatlarini ta'minlashdir. Bu esa Bolalar ombudsmani zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Surayyo RAHMONOVA,
Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili
(Bolalar ombudsmani).

